

Demografik holat



(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 33 375,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 120,3 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 16 865,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5 %), qishloq aholisi soni 16 510,7 ming kishini (49,5 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Doimiy aholi soni **120,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **159,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **37,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **53,7 mingta nikoh** va **8,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

2019 yil yanvar-mart oylarida

Tirik
tug'ilganlar
soni
159,5
ming bola

Vafot
etganlar soni
37,1
ming kishi

Yil boshida doimiy
aholi soni
33 255,5
(2019 yil 1 yanvar
holatiga, ming kishi)



Ko'chib
kelganlar
soni
41,5
ming kishi

Ko'chib
ketganlar
soni
43,6
ming kishi

Tabiiy o'sishi
122,4
ming kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
-2,1
ming kishi

Doimiy aholi soni
33 375,8
(2019 yil 1 aprel holatiga,
ming kishi)


Demografik holat

Doimiy aholi soni (1 aprel holatiga)

	2018 y.	2019 y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
O'zbekiston Respublikasi	32 763,5	33 375,8	101,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 847,6	1 875,4	101,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 020,7	3 077,2	101,9
Buxoro	1 869,9	1 900,0	101,6
Jizzax	1 330,0	1 358,2	102,1
Qashqadaryo	3 159,8	3 225,8	102,1
Navoiy	966,4	982,6	101,7
Namangan	2 708,7	2 763,1	102,0
Samarqand	3 733,7	3 813,6	102,1
Surxandaryo	2 524,6	2 580,6	102,2
Sirdaryo	818,5	833,0	101,8
Toshkent	2 867,1	2 907,0	101,4
Farg'ona	3 631,2	3 695,5	101,8
Xorazm	1 810,0	1 841,0	101,7
Toshkent sh.	2 475,3	2 522,8	101,9

Demografik holat


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga; respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga; jamiga nisbatan % da)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil 1 aprel holatiga Respublika doimiy aholi sonining 30,4 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,1 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 159,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,4 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 18,2 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Ma'lumot uchun:

Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentligining FHDYO organlarida jami 172,2 mingta tug'ilganlik holati qayd etilgan bo'lib, shundan **159,5 mingtasi tirik tug'ilganlar**, 1,6 mingtasi o'lik tug'ilganlar va 11,1 mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda tug'ilganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.


O'g'il bolalar:

**82,3
ming nafar**




Qiz bolalar:
**77,2
ming nafar**

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-mart)



Demografik holat

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 37,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,7 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun:

Adliya vazirligining Davlat xizmatlari agentlining FHDYO organlarida jami 41,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 37,1 mingtasi joriy yilda vafot etgan va 4,6 mingtasi 2019 yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tib, 2018 yilda vafot etganlar, xalqaro tavsiyalarga asosan, 2018 yilning yakuniy ma'lumotlarida inobatga olingan.


Erkaklar:
20,7
ming kishi




Ayollar:
16,4
ming kishi

Demografik holat

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-mart)



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,8 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i - o'simtalardan, 5,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,4 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,2 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 1,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 52,1 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,3 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,0 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,1 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,1 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,7 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 6,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019 yil yanvar-mart holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




Demografik holat

Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Demografik holat

O'lim koeffitsentlari to'g'risida ma'lumot (2019 yil yanvar-mart)



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 122,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 13,0 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 109,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 122,4 ming kishi




Demografik holat

Nikoh. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 53,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Namangan viloyati (19,4 %), Toshkent shahri (12,9 %), Toshkent (12,8 %), Jizzax (11,8 %), Andijon (9,1 %) va Sirdaryo (9,1 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-mart)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (25,0 %), Namangan (16,7 %), va Andijon (11,1%) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Qashqadaryo (33,3 %) Samarqand va Xorazm (11,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

Demografik holat

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-mart)



Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 41,5 ming kishini (40,7 ming kishi respublika hududlaridan, 0,8 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 43,6 ming kishini (40,7 ming kishi respublika hududlariga, 2,9 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,1 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 2,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	44,9	41,5
Ko'chib ketganlar	47,4	43,6
Migratsiya saldosi	-2,5	-2,1

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Qashqadaryo (minus 1,4 ming kishi), Samarqand (minus 1,3 ming kishi) va Toshkent, Buxoro (minus 0,8 ming kishi) viloyatlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosinging ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plus 5,8 ming kishi) kuzatildi.




Demografik holat

XORIJIY MIGRATSIYA

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


(2019 yil yanvar-mart oylarida, jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni - 767 kishi

O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-mart oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)




Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni - 2863 kishi

Demografik holat

Poytaxtdagi demografik holat. O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2522,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 12,9 ming kishiga yoki 0,5 %ga o'sgan.

Toshkent shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan, promille)



2019 yilning yanvar-mart oylarida 11,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 17,8 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,1 ga (2018 yilning mos davrida 15,7 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida 4,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 133 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 6,4 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 7,0 promille bo'lgan).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 7,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,7 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 5,4 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar-mart oylarida 3,5 mingta nikoh va 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,6 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 ga o'sdi (2018 yilning mos davrida - 5,0 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega (2018 yilning mos davrida 1,6 promille bo'lgan) o'sgan.

Toshkent shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(1000 aholiga nisbatan, yanvar-mart holatiga, promille)

